

UDK: 37.01: 82.09

**10-11-SINFLARDA ADABIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHGA OID  
ILG'OR XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR****Isabayeva Asida Yusufjonovna,***Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),**E-mail: [asida.isabayeva@bk.ru](mailto:asida.isabayeva@bk.ru),**ORCID: 0000-0003-1432-9651*

**Annotatsiya.** Ushbu bo'limda 10–11-sinf o'quvchilarida adabiy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha xorijiy va milliy ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilingan. Tadqiqotda Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mamlakatlaridagi nasriy adabiyot o'qitishning innovatsion yondashuvlari, interaktiv metodlar, differensial ta'lim va loyiha asosidagi o'qitish tajribalari ko'rib chiqilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimida moslashtirish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yozish va matnni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tayanch so'zlar:** Adabiy kompetensiya, pedagogik tajriba, interaktiv metodlar, differensial ta'lim, loyiha asosidagi o'qitish, nasriy adabiyot, tanqidiy fikrlash, ijodiy yozish.

**Abstract.** This section analyzes advanced foreign and national pedagogical practices for developing literary competence in 10th–11th grade students. The study examines innovative approaches to teaching prose literature in European, North American, and Asian countries, including interactive methods, differentiated instruction, and project-based learning experiences. The results indicate that adapting these practices within the national education system contributes effectively to the development of students' critical thinking, creative writing, and deep text analysis skills.

**Key words:** Literary competence, pedagogical experience, interactive methods, differentiated instruction, project-based learning, prose literature, critical thinking, creative writing.

**Аннотация.** В данном разделе анализируются передовые зарубежные и национальные педагогические практики формирования литературной компетенции у учащихся 10–11 классов. Исследование рассматривает инновационные подходы к преподаванию прозы в странах Европы, Северной Америки и Азии, включая интерактивные методы, дифференцированное обучение и проектно-ориентированные образовательные практики. Результаты показывают, что адаптация этих практик в рамках национальной системы образования эффективно способствует развитию у учащихся критического мышления, навыков творческого письма и глубокого анализа текста.

**Ключевые слова:** Литературная компетенция, педагогическая практика, интерактивные методы, дифференцированное обучение, проектно-ориентированное обучение, проза, критическое мышление, творческое письмо.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimining strategik maqsadlari orasida o'quvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ustuvor o'rin tutadi. Bu masalaning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi matnli ma'lumotlarning hajmi va turlarini sezilarli oshirdi, natijada zamonaviy inson kundalik hayotida turli xil matnlar bilan ishlash zaruriyati tobora ortib bormoqda. Ikkinchidan, adabiy kompetensiya nafaqat adabiyot fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lib qolmay, balki shaxsning umumiy intellektual rivojlanishi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va madaniy tafakkurini

shakllantirishda muhim pedagogik vosita vazifasini bajaradi. Uchinchidan, o'рта ta'limning yakuniy bosqichida - 10-11-sinflar darajasida - o'quvchilarning adabiy kompetensiyasi ulug' oliy ta'limga tayyorgarlik ko'rishi va mustaqil intellektual faoliyatga kirishish uchun zaruriy bazani tashkil etadi.

Adabiy kompetensiya tushunchasining o'zi pedagogik fan taraqqiyoti bilan birga kengayib va chuqurlab bordi. Agar XX asrning o'rtalarida bu atama asosan o'qish va yozish ko'nikmalarini anglatgan bo'lsa, hozirgi kunda adabiy kompetensiya ancha murakkab va ko'p qirrali pedagogik hodisa sifatida tushuniladi. Zamonaviy ta'riflar nuqtai nazaridan adabiy kompetensiya o'quvchining matnni turli darajada idrok etish (literal, interpretativ, baholovchi o'qish), turli janr va uslubdagi matnlarni tahlil qilish, adabiy asarlarni madaniy-tarixiy kontekstda baholash, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq hamda ta'sirchan ifodalash, shuningdek ijodiy matnlar yaratish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi (Alexander, 2016; Guthrie & McRae, 2015). Bu holat adabiy kompetensiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda kompleks va sistemli yondashuvni talab qiladi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda adabiy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha uzoq yillar davomida samarali pedagogik tajriba to'plangan va doimiy takomillashtirib borilmoqda. Yevropa ta'lim tizimlarida, xususan Finlandiya va Germaniyada, integratsiyalashgan va o'quvchi markazli yondashuvlar ilg'or amaliyot sifatida keng qo'llaniladi. Sahlberg (2015) tomonidan amalga oshirilgan ko'p yillik tadqiqotlar Finlandiya ta'lim modelining samaradorligini tasdiqladi - bu modelda adabiyot alohida fan sifatida emas, balki tarix, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarga adabiy asarni nafaqat badiiy matn sifatida, balki muayyan tarixiy davr, ijtimoiy sharoit va madaniy kontekstning mahsuli sifatida anglash imkonini beradi. Germaniyada esa Knoll va Fauth (2017) tomonidan ishlab chiqilgan diskursiv yondashuv adabiy matnlarni ochiq muhokama va tanqidiy tahlil orqali o'rganishni nazarda tutadi, bu esa o'quvchilarning analitik fikrlash va argumentatsiya qilish ko'nikmalarini sezilarli rivojlantiradi.

Shimoliy Amerika mamlakatlarida, ayniqsa AQSh va Kanadada, adabiy kompetensiyani rivojlantirish fanlararo integratsiya va zamonaviy texnologik platformalar asosida amalga oshiriladi. Guthrie va McRae (2015) tomonidan taklif etilgan "literacy across the curriculum" konsepsiyasi adabiy kompetensiya shakllantirishni faqat til va adabiyot darslariga bog'lamay, balki barcha fanlar bo'ylab amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarga turli kontekstlarda matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi - tarix darsida tarixiy hujjatlarni, fan darsida ilmiy maqolalarni, ijtimoiy fanlar darsida publitsistik matnlarni tahlil qilish orqali. Smith va Levitt (2018) ta'kidlaganidek, Kanadada differensial ta'lim va inklyuziv yondashuv keng qo'llaniladi, bu esa turli qobiliyat va madaniy kelib chiqishga ega bo'lgan o'quvchilarning adabiy kompetensiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirishga imkon beradi. Osiyo

mamlakatlarning tajribasi ham e'tiborga loyiqdir. Yaponiya va Janubiy Koreyada adabiy kompetensiya rivojlanishi yuqori akademik talablar va zamonaviy texnologik innovatsiyalarning uyg'unligi asosida tashkil etilgan. Lee (2017) tomonidan o'rganilgan Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, virtual ta'lim platformalari, interaktiv testlar va onlayn adabiy diskussiya forumlari an'anaviy pedagogik metodlar bilan muvaffaqiyatli integratsiyalashganda, o'quvchilarning adabiy kompetensiyasi sezilarli oshadi. Yaponiyada qo'llaniladigan ko'p darajali matn tahlili metodologiyasi - literal, interpretativ va baholovchi o'qish - o'quvchilarga matnni bosqichma-bosqich chuqurroq tushunish yo'lini ochadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi o'n yillikda adabiy kompetensiyani rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy ta'lim siyosatining strategik hujjatlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mustaqil o'rganish va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish vazifalarini belgilaydi. Biroq, amaliyotda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, adabiyot darslari ko'pincha matn mazmunini yuzaki o'rganish bilan cheklanadi va chuqur tahlil, turli talqinlarni solishtirish, tanqidiy baholash kabi murakkab kognitiv jarayonlarga yetarli e'tibor berilmaydi. Ikkinchidan, an'anaviy o'qitish metodlari ustunlik qiladi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar - interaktiv metodlar, loyiha asosidagi o'qitish, raqamli texnologiyalar - hali barcha maktablarda keng qo'llanilmaydi. Uchinchidan, adabiy kompetensiyani baholash asosan reproduktiv bilimlarni tekshirishga qaratilgan va tanqidiy fikrlash, ijodiy yozish kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarni baholash tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mahalliy tadqiqotchilar ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llarini izlamoqdalar. Xususan, tadqiqotchi Xolmatov (2020) o'z dissertatsiya tadqiqotida nasriy adabiyot o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligini eksperimental yo'l bilan isbotladi. Uning tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, savol-javob, guruh muhokamasi, dramatizatsiya kabi faol o'rganish metodlari o'quvchilarning matnni chuqur anglash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli oshiradi. Axmedova (2021) multimediali vositalar va raqamli texnologiyalarning adabiy kompetensiya rivojlanishidagi rolini o'rgandi va audiokitoblar, video materiallar, interaktiv prezentatsiyalarning o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ijodiy faoliyatni rag'batlantirishda samarali ekanligini aniqladi. Norqulov (2019) differensial yondashuv va guruh ishlari kombinatsiyasining pedagogik imkoniyatlarini tahlil qildi va har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishning zarurligini asosladi. Ismoilov (2022) milliy adabiy meros va zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni sintez qilish masalasini ko'tardi va jadid adabiyoti hamda zamonaviy o'zbek nasrining ta'limiy potentsialini ochib berdi. Biroq, mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish bir qancha ilmiy bo'shliqlarni ham ko'rsatadi. Birinchidan, xorijiy ilg'or tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishning kompleks metodikasi hali to'liq ishlab chiqilmagan. Ikkinchidan, nasriy adabiyot orqali adabiy kompetensiyaning barcha komponentlarini - kognitiv, emotsional-

estetik, kommunikativ-ijodiy va reflektiv - uyg'unlashtirib rivojlantirish sistemasi mavjud emas. Uchinchidan, 10-11-sinf o'quvchilari uchun maxsus mo'ljallangan, ularning yosh xususiyatlari va oliy ta'limga tayyorlanish ehtiyojlarini hisobga olgan metodika yetarli darajada ishlab chiqilmagan. To'rtinchidan, adabiy kompetensiyani ob'ektiv va kompleks baholash tizimi - formativ va summativ baholashni birlashtiradigan, turli qobiliyatlarni o'Ichaydigan - hali to'liq yaratilmagan.

Ushbu ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish zarurati mazkur tadqiqotning maqsadini belgiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi 10-11-sinf o'quvchilarida nasriy adabiyot orqali adabiy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha xorijiy va milliy pedagogik tajribalarni taqqoslash tahlilini amalga oshirish, ularni integratsiyalashgan holda milliy ta'lim kontekstiga moslashtirilgan kompleks metodika ishlab chiqish uchun nazariy-amaliy asos yaratishdir. Bu maqsadga erishish uchun bir qancha vazifalar belgilab olindi. Jumladan, adabiy kompetensiyaning tarkibiy komponentlari, rivojlanish bosqichlari va pedagogik sharoitlarini nazariy jihatdan asoslash; Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mamlakatlaridagi nasriy adabiyot o'qitish tajribalarini tahlil qilish va umumlashtirish; O'zbekiston maktablaridagi mavjud amaliyotni o'rganish va uning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlash; xorijiy tajribalarni milliy kontekstga moslashtirishning pedagogik sharoitlari va tamoyillarini ishlab chiqish; nasriy adabiyot orqali adabiy kompetensiyani kompleks rivojlantirish metodikasini yaratish va uning samaradorligini eksperimental yo'l bilan tekshirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi bir necha jihatlarda namoyon bo'ladi. Nazariy jihatdan adabiy kompetensiyaning to'rt komponentli modeli (kognitiv, emotsional-estetik, kommunikativ-ijodiy, reflektiv) ishlab chiqildi va nasriy adabiyot orqali ularning o'zaro ta'sir mexanizmlari ochib berildi. Metodologik jihatdan xorijiy va milliy pedagogik tajribalarni qiyosiy tahlil qilish va integratsiyalashgan holda tatbiq etish metodikasi yaratildi. Amaliy jihatdan esa 10-11-sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini, oliy ta'limga tayyorlanish ehtiyojlarini hamda milliy madaniy kontekstni hisobga olgan kompleks pedagogik tizim ishlab chiqildi. Bu tizim an'anaviy va innovatsion metodlarni, texnologik vositalar va klassik pedagogik yondashuvlarni, individual va jamoaviy ishlash shakllarini muvozanatli birlashtiradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan metodika bevosita maktab amaliyotida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchilar uchun batafsil metodik qo'llanma, dars ishlanmalari va didaktik materiallar majmuasi tayyorlandi. Adabiy kompetensiyani baholash uchun diagnostika vositalari - testlar, rubrikalar, portfolio shakllari - yaratildi. Maktab ma'muriyati uchun adabiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini monitoring qilish va boshqarish mexanizmlari taklif etildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqotning nazariy asosini klassik va zamonaviy pedagogika, psixologiya va adabiyotshunoslik nazariyalari tashkil etadi. Vygotskiy L.S. ning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, Leontyev A.N. ning faoliyat nazariyasi, Bloom B. ning taksonomiyasi, Anderson L. va Krathwohl D. ning qayta ko'rib chiqilgan kognitiv taksonomiyasi, shuningdek Rosenblatt L. ning transaksional o'qish nazariyasi tadqiqotning metodologik ramkasini belgiladi. Zamonaviy yondashuvlar orasida konstruktivistik pedagogika tamoyillari (Sahlberg, 2015), ko'p savodxonlik (multiliteracy) konsepsiyasi (Guthrie & McRae, 2015) va madaniyatlararo kompetensiya nazariyasi (Lee, 2017) muhim o'rin tutadi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotning metodologik asosi kompleks va ko'p bosqichli yondashuv orqali shakllandi. Tadqiqot jarayoni 2022-yilning sentyabr oyidan boshlanib, 2024-yilning may oyigacha davom etdi va Namangan viloyatining uchta ixtisoslashgan maktabida amalga oshirildi. Tadqiqot ob'yekti sifatida 10-11-sinf o'quvchilarining nasriy adabiyot bilan ishlash jarayonidagi adabiy kompetensiyasi tanlab olindi. Umumiy tanlovga 180 nafar o'quvchi jalb etildi, ulardan 90 nafari eksperimental, qolgan 90 nafari esa nazorat guruhini tashkil etdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sistemli yondashuv, faoliyat nazariyasi va konstruktivistik ta'lim paradigmasi tamoyillariga asoslandi. Sahlberg (2015) va Alexander (2016) tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy ta'lim nazariyalari tadqiqotning konseptual ramkasini belgilashda muhim rol o'ynadi. Adabiy kompetensiya tushunchasining o'zi ko'p komponentli struktura sifatida qaraldi va uning tarkibiga kognitiv, emotsional-estetik, kommunikativ-ijodiy hamda reflektiv komponentlar kiritildi. Bu yondashuv adabiy kompetensiyani yagona, bir tomonlama ko'nikma sifatida emas, balki o'zaro bog'liq qobiliyatlar majmui sifatida o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida keng qamrovli nazariy tahlil amalga oshirildi. Bu jarayonda xorijiy va milliy ilmiy manbalar, dissertatsiyalar, monografiyalar va o'tgan o'n yil davomida nashr etilgan ilmiy maqolalar sistemali ravishda o'rganildi. Kontentanaliz metodidan foydalanib, adabiy kompetensiyaning turli ta'riflariga, uning tarkibiy komponentlariga va rivojlanish bosqichlariga oid nazariy qarashlar tahlil qilindi. Guthrie va McRae (2015) ning literacy across the curriculum konsepsiyasi, Lee (2017) tomonidan taklif etilgan ko'p darajali matn tahlili modeli, shuningdek Knoll va Fauth (2017) ning diskursiv yondashuv nazariyasi tadqiqotning nazariy bazasini boyitdi. Komparativ tahlil metodi yordamida Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan nasriy adabiyot o'qitish metodlari solishtirilib, ularning umumiy xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Empirik tadqiqot bosqichi strukturali kuzatuv metodidan keng foydalanishni o'z ichiga oldi. Kuzatuv jarayoni oldindan ishlab chiqilgan protokol asosida amalga oshirildi va quyidagi aspektlarga e'tibor qaratildi: o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, matn bilan ishlash strategiyalari, guruh muhokamalaridagi ishtiroki,

muammoli vaziyatlarni hal qilish yondashuvlari va reflektiv faoliyat ko'rsatkichlari. Har bir kuzatuv sessiyasi darhol hujjatlashtirildi va keyinchalik tematik analiz uchun kodlashtirildi. Xolmatov (2020) tomonidan taklif etilgan interaktiv metodlarni baholash mezonlari moslashtirilgan holda qo'llanildi va mahalliy sharoitlarga mos keltirildi.

Jadid adabiyoti va zamonaviy o'zbek nasri asarlari asosiy o'quv materiali sifatida tanlandi. Bu tanlov tasodifiy emas edi - jadid adabiyoti o'zbek adabiy tafakkurining modernlashish jarayonini aks ettiradi va o'quvchilarga milliy-madaniy identifikatsiya imkonini beradi, zamonaviy nasriy asarlar esa dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolarni ko'taradi va o'quvchilarning hayotiy tajribasiga yaqindir. Ismoilov (2022) ta'kidlaganidek, milliy adabiy merosni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarda nafaqat adabiy, balki madaniy kompetensiyani ham shakllantiradi.

Tadqiqotda turli xil didaktik metodlar qo'llanildi. Muammoli ta'lim metodi orqali o'quvchilar matn tarkibida yuzaga keladigan ziddiyatlarni aniqlash, qahramonlarning xatti-harakatlarini tushuntirish va muallif pozitsiyasini ochib berish vazifalariga duch keldilar. Dialogik o'qitish metodi o'quvchilarga matn yuzasidan ochiq muhokama yuritish, turli talqinlarni taklif etish va o'z nuqtai nazarini ilmiy asoslash imkonini berdi. Keys-stadi metodi esa konkret adabiy vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil echimlarni topish va pedagogik jihatdan asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Reflektiv suhbat metodlari orqali o'quvchilar o'z o'qish strategiyalarini baholash, samarali va samarasiz yondashuvlarni aniqlash hamda o'z ta'lim jarayonini ongli boshqarish qobiliyatini oshirdilar.

Grafikli organayzerlar tadqiqotda muhim vosita bo'lib xizmat qildi. Klaster metodidan foydalanib, o'quvchilar matnning markaziy g'oyasi atrofida bog'liq tushunchalar, obrazlar va motivlarni tizimlashtirdilar. Konseptual xarita matn tarkibidagi turli elementlar o'rtasidagi semantik va kauzal aloqalarni vizualizatsiya qilish imkonini berdi. Venn diagrammasi yordamida turli personajlar, syujet chiziqlari yoki adabiy asarlarning o'xshash va farqli jihatlarini solishtirma tahlil qilish amalga oshirildi. Axmedova (2021) ta'kidlaganidek, vizual-grafik metodlar matn mazmunini idrok etishni osonlashtiradi va o'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologik vositalar tadqiqotda keng qo'llanildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari spektri elektron darsliklar, onlayn ta'lim platformalari va audiokitoblarni o'z ichiga oldi. Elektron darsliklar interaktiv elementlar, giperhavolalar va multimediali qo'shimchalar orqali matn bilan ishlashni boyitdi. Onlayn ta'lim platformalari, xususan Moodle va Google Classroom tizimlari, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi doimiy kommunikatsiyani ta'minladi, topshiriqlarni tarqatish va natijalarni yig'ish jarayonini avtomatlashtirdi. Audiokitoblar professional ijrochilar tomonidan taqdim etilgan matnlarni tinglash orqali o'quvchilarga nutqning intonatsion, ritm va emotsional xususiyatlarini idrok etish imkonini berdi. Gamifikatsiya elementlari

o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish maqsadida qo'llanildi. Adabiy viktorinalar raqobat ruhini uyg'otdi va bilimlarni mustahkamlashga yordam berdi. Rol o'yinlari o'quvchilarga adabiy qahramonlar o'rniga o'zlarini qo'yish, ularning motivatsiyasi va psixologiyasini chuqurroq tushunish imkonini berdi. Ball to'plash tizimi o'quvchilarning faolligini rag'batlantirdi va individual yutuqlarni kuzatish imkoniyatini yaratdi. Lee (2017) ta'kidlaganidek, o'yin elementlarini ta'limga integratsiyalash o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi.

Testkari sinf modeli tadqiqotning innovatsion komponenti bo'ldi. Bu yondashuv an'anaviy ta'lim jarayonini o'zgartirdi: o'quvchilar nazariy materiallar bilan uyda mustaqil tanishdilar, video darslarni tomosha qildilar, matnni dastlabki o'qishni amalga oshirdilar. Dars vaqti esa chuqur tahlil, guruh muhokamasi, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy topshiriqlar bajarishga bag'ishlandi. Bu model o'quvchilarning faol o'rganish vaqtini sezilarli oshirdi va o'qituvchiga har bir o'quvchi bilan individual ishlash imkonini berdi. Sun'iy intellekt vositalari tajriba sifatida sinovdan o'tkazildi. Matn tahlili dasturlari matnning murakkablik darajasini baholash, kalit so'zlarni aniqlash va tematik tuzilmani vizualizatsiya qilish imkonini berdi. Plagiatni aniqlash tizimlari o'quvchilarning ijodiy yozuvlarining originalligini tekshirishda yordam berdi. Grammatika va stil tekshiruvchi dasturlar o'quvchilarga o'z yozuvlarini tahrirlash va takomillashtirishda qo'llab-quvvatladi. Biroq, bu vositalar asosiy o'qitish metodlarini to'liq almashtirmadi, balki qo'shimcha pedagogik resurs sifatida foydalanildi.

Formativ baholash tizimi tadqiqot davomida doimiy monitoring va qayta aloqa berish imkonini yaratdi. Norqulov (2019) tomonidan taklif etilgan differensial baholash mezonlari milliy kontekstga moslashtirildi. O'quvchilarning adabiy kompetensiyasi bir necha parametrlar bo'yicha baholandi: matnni literal tushunish, interpretativ o'qish, tanqidiy baholash, ijodiy yozish va reflektiv fikrlash. Har bir parametr uchun tavsiflovchi rubrikalar ishlab chiqildi va ball tizimi aniqland. Baholash jarayoni faqat o'qituvchi tomonidan emas, balki o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash metodlari orqali ham amalga oshirildi.

Portfolio metodi o'quvchilarning adabiy kompetensiya rivojlanish dinamikasini uzoq muddatli kuzatish vositasi bo'ldi. Har bir o'quvchining portfoliosiga turli xil ishlar kiritildi: matn tahlillari, ijodiy esselar, loyiha ishlarining natijalari, reflektiv yozuvlar va o'z-o'zini baholash jadvallari. Portfolio yig'ish jarayoni o'quvchilarga o'z yutuqlarini ko'rish, rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va kelajakdagi maqsadlarni belgilash imkonini berdi. O'qituvchilar uchun portfolio har bir o'quvchining individual rivojlanish traektoriyasini kuzatish va pedagogik strategiyani moslashtirish asosini tashkil etdi.

Ma'lumotlar to'plash murakkab va ko'p bosqichli jarayon edi. Dastlabki diagnostika bosqichida o'quvchilarning adabiy kompetensiyasining boshlang'ich darajasi standartlashtirilgan testlar, ochiq savollar va amaliy topshiriqlar orqali baholandi. Tadqiqot

davomida muntazam ravishda oraliq monitoringlar o'tkazildi - har ikki oyda o'quvchilarning rivojlanish dinamikasi qayd etildi. Yakuniy baholash tadqiqot oxirida kompleks diagnostika vositalari yordamida amalga oshirildi. Barcha bosqichlarda bir xil baholash mezonlari qo'llanildi, bu esa natijalarni obyektiv solishtirish imkonini berdi.

To'plangan miqdoriy ma'lumotlar statistik tahlil dasturlari (SPSS 25.0) yordamida qayta ishlandi. Deskriptiv statistika - o'rtacha qiymatlar, standart og'ishlar, minimal va maksimal ko'rsatkichlar - guruhlarining umumiy holatini tavsiflash uchun hisoblab chiqildi. Inferensial statistika metodlari - Student t-testi va dispersiya tahlili (ANOVA) - eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatini aniqlash uchun qo'llanildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi  $p < 0.05$  sifatida belgilandi, bu ilmiy tadqiqotlarda qabul qilingan standartga mos keladi.

Sifat ma'lumotlari tematik tahlil metodi orqali qayta ishlandi. O'qituvchilar va o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar, ochiq savollarga berilgan javoblar, reflektiv yozuvlar va kuzatuv protokollari ichki mazmun tahlilidan o'tkazildi. Dastlab ochiq kodlashtirish amalga oshirildi - mazmunli bo'laklar ajratildi va dastlabki kodlar berildi. Keyin aksiyal kodlashtirish jarayonida o'xshash kodlar kategoriyalarga birlashtirildi. Nihoyat, selektiv kodlashtirish bosqichida asosiy temalar va ularning o'zaro aloqalari aniqland. Tadqiqotning etik jihatlari ham diqqat markazida bo'ldi. Tadqiqotni boshlashdan oldin barcha ishtirokchilardan va ularning ota-onalaridan yozma rozilik olindi. O'quvchilarga tadqiqotning maqsadi, ular qanday faoliyatda ishtirok etishlari va natijalar qanday ishlatilishi to'g'risida batafsil ma'lumot berildi. Ishtirokchilarning maxfiyligi ta'minlandi - hech qanday shaxsiy ma'lumotlar ochiq e'lon qilinmadi va barcha natijalar umumlashtirilgan shaklda taqdim etildi. Ishtirokchilar istalgan vaqtda tadqiqotdan chiqish huquqiga ega edilar.

Tadqiqotning ichki validligini ta'minlash uchun bir qator choralar ko'rildi. Eksperimental va nazorat guruhlari tasodifiy tanlov yo'li bilan shakllantirildi, bu esa sistematik xatolikni kamaytirdi. Barcha guruhlar bir xil boshlang'ich sharoitlarda edi - ular bir xil yoshdagi, bir xil ta'lim darajasiga ega va bir xil ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan bo'lgan o'quvchilardan tashkil topdi. Tashqi validlikni oshirish uchun tadqiqot turli xil maktablarda o'tkazildi, bu esa natijalarning umumlashtirilishi imkonini kengaytirdi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash uchun triangulatsiya prinsipi qo'llanildi. Ma'lumotlar triangulatsiyasi - turli manbaalardan ma'lumot to'plash, metodologik triangulatsiya - turli usullarni qo'llash, tadqiqotchilar triangulatsiyasi - bir nechta mutaxassislarni jalb etish orqali natijalarning obyektivligi oshirildi. Barcha o'lchov vositalari pilot tadqiqot davomida sinovdan o'tkazildi va ularning ishonchliligi va validligi Cronbach alfa koeffitsienti ( $\alpha > 0.80$ ) orqali tasdiqlandi.

**Natijalar.** Xorijiy va milliy pedagogik tajribalarni tahlil qilish jarayonida to'plangan empirik ma'lumotlar adabiy kompetensiyani rivojlantirishning turli modellarini va

yondashuvlarini yaqqol ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari uch asosiy geografik-madaniy mintaqalar - Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo - bo'yicha tizimli ravishda tahlil qilindi va milliy pedagogik amaliyot bilan taqqoslandi.

Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan pedagogik tajribalar adabiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining kompleksligini va sistemlilikini namoyish etadi. Finlandiya ta'lim tizimida integratsiyalashgan yondashuv uzoq yillar davomida samarali amalga oshirilmoqda va Sahlberg (2015) tomonidan o'tkazilgan longitudinal tadqiqotlar uning yuqori natijaviyligini tasdiqlaydi. Bu modelning o'ziga xosligi shundaki, adabiyot darslari izolatsiya qilingan fan sifatida emas, balki tarix, falsafa, san'at, hatto ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liq holatda tashkil etiladi. Konkret misol sifatida, Finlandiya maktablarida o'quvchilar XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi nasriy asarlarni o'rganayotganda, ular bir vaqtning o'zida shu davrning tarixiy voqealari, ijtimoiy harakatlar, falsafiy oqimlar va san'at yo'nalishlari bilan tanishadilar. Bu yondashuv natijasida o'quvchilar adabiy asarni nafaqat badiiy matn sifatida, balki muayyan tarixiy-madaniy kontekstning mahsuli va aks ettiruvchisi sifatida idrok etish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Finlandiya tajribasining yana bir muhim komponenti loyiha asosidagi o'qitishdir. O'quvchilar guruh yoki individual loyihalar ustida ishlash jarayonida nasriy asarni turli nuqtai nazardan tahlil qiladilar - psixologik, ijtimoiy, falsafiy, badiiy-estetik jihatlardan. Loyihalar turli shakllarda namoyish etiladi: taqdimotlar, essaylar, multimedia prezentatsiyalar, drammatizatsiya, hatto zamonaviy kontekstda qayta yaratish. Bu faoliyat nafaqat matnni chuqur tushunishga, balki ijodiy fikrlash, hamkorlik qilish va natijalarni samarali taqdim etish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Sahlberg (2015) ta'kidlaganidek, Finlandiya maktablarida o'quvchilarning adabiy kompetensiyasi bo'yicha xalqaro baholash natijalarining doimiy yuqori bo'lishi aynan sistemli va integratsiyalashgan yondashuv bilan bog'liq.

Germaniya pedagogik tajribasi munozara va tanqidiy tahlil metodologiyasini namoyish etadi. Knoll va Fauth (2017) tomonidan o'rganilgan germancha ta'lim modelida adabiy matnlar diskursiv muhokama ob'yekti sifatida qaraladi. O'quvchilar matnni faqat qabul qilib oluvchi sifatida emas, balki faol talqinlovchi va tanqidiy baholovchi sifatida pozitsiyalanadilar. Darslar ko'pincha Sokrat usulida tashkil etiladi - o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri javoblar berish o'rniga, o'quvchilarni savollar tizimi orqali mustaqil xulosalarga kelib chiqishga yo'naltiradi. Bu metodologiya o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy argumentatsiya qilish va o'z pozitsiyasini ilmiy asoslash qobiliyatlarini sezilarli rivojlantiradi.

Germaniyada differensial ta'lim printsiplari ham chuqur ishlab chiqilgan. Bir sinf ichida o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari, o'rganish tezligi va qiziqishlari sezilarli farq qilishi mumkinligi e'tirof etiladi va pedagogik jarayon bu heterogenlikni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Knoll va Fauth (2017) kuzatishlariga ko'ra, bir xil adabiy asarni

o'rganishda turli darajadagi topshiriqlar taklif etiladi. Qiyinchilik boshdan kechirayotgan o'quvchilar matnning literal mazmunini tushunish, syujet voqealarini qayta hikoya qilish kabi bazaviy topshiriqlar bilan ishlasalar, o'rta darajadagi o'quvchilar qahramonlar xarakterini tahlil qilish, motivatsiyalarni tushuntirish kabi topshiriqlar oladi, yuqori qobiliyatli o'quvchilar esa matnni turli tanqidiy yondashuvlar (psixanalitik, feministic, postkolonial) nuqtai nazaridan tahlil qilish, mustaqil tanqidiy esse yozish kabi murakkab intellektual vazifalar bilan shug'ullanadilar.

Buyuk Britaniya ta'lim tizimida adabiy kompetensiya rivojlanishi ko'p darajali baholash paradigmasi bilan chambarchas bog'liq. Alexander (2016) tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli tadqiqot ingliz maktablarida qo'llaniladigan formativ baholash tizimining samaradorligini ko'rsatdi. Bu tizimda o'quvchilarning adabiy kompetensiyasi doimiy monitoring orqali baholanadi va faqat yakuniy imtihon natijalari emas, balki dars jarayonidagi faollik, guruh muhokamalaridagi ishtirok, loyiha ishlari, ijodiy yozuvlar va o'z-o'zini baholash ham hisobga olinadi. Har bir baholash komponenti aniq mezonlar va tavsiflovchi rubrikalar asosida amalga oshiriladi, bu esa baholashning shaffofligini va obyektivligini ta'minlaydi. Britaniya tajribasida refleksiv yondashuv alohida o'rin tutadi. O'quvchilar muntazam ravishda o'z o'qish faoliyatini tahlil qiladilar, nimani yaxshi tushunganliklarini, qaysi qismlar qiyin bo'lganini, qanday strategiyalar samarali bo'lganini va kelajakda nimani yaxshilash kerakligini baholaydilar. Alexander (2016) ta'kidlaganidek, bu metakognitiv ko'nikmalar o'quvchilarni ongli va mustaqil o'rganuvchilarga aylantirishda muhim rol o'ynaydi. Refleksiv yozuvlar, o'z-o'zini baholash jadvallari va portfolio metodlari bu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi.

Shimoliy Amerika mamlakatlarining tajribasi adabiy kompetensiyani fanlararo perspektivada rivojlantirishni namoyish etadi. AQSh ta'lim tizimida Guthrie va McRae (2015) tomonidan ishlab chiqilgan va targ'ib qilingan "literacy across the curriculum" konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv adabiy kompetensiyani faqat ingliz tili va adabiyot darslariga bog'lamaydi, balki barcha fanlar bo'ylab matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Konkret amaliyotda bu quyidagicha ko'rinadi: tarix darsida o'quvchilar tarixiy hujjatlarni, xotiralarni, tarixiy nasriy asarlarni tahlil qiladilar; ijtimoiy fanlar darsida publitsistik maqolalar, sotsiologik tadqiqot hisobotlari bilan ishlaydilar; fan darslarida ilmiy maqolalar, ilmiy-ommabop matnlarni o'qib tushunish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bu yondashuv natijasida o'quvchilarning adabiy kompetensiyasi kontekstlar bo'ylab transferli bo'ladi - bir kontekstda o'rganilgan ko'nikmalar boshqa kontekstlarda ham qo'llaniladi. AQSh maktablarida loyiha asosidagi o'qitish va texnologik innovatsiyalar ham keng tarqalgan. Guthrie va McRae (2015) ta'kidlaganidek, o'quvchilar nasriy asarlar ustida ishlashda turli raqamli vositalar va platformalardan foydalanadilar. Multimediali prezentatsiyalar - matn, tasvir, audio va video elementlarni birlashtirgan - an'anaviy yozma hisobotlardan ko'ra ko'proq

imkoniyatlar taqdim etadi. Podkast yaratish o'quvchilarga adabiy asarni og'zaki tahlil qilish, professional audio tahrirlash va auditoriya uchun qiziqarli kontent yaratish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Video-esselar vizual savodxonlik va multimedia hikoya qilish (digital storytelling) qobiliyatlarini talab qiladi. Blog yozuvlari esa o'quvchilarga o'z fikrini yozma shaklda ifodalash, boshqa o'quvchilar bilan munozara qilish va feedback olish imkonini beradi.

Kanada ta'lim tizimida differensial va inklyuziv yondashuvlar markaziy o'rin tutadi. Smith va Levitt (2018) tomonidan ko'p etnikli va ko'p madaniyatli Kanada sinflari kontekstida olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, adabiy kompetensiyani rivojlantirishda madaniy xilma-xillikni hisobga olish zarur. Kanada maktablarida o'quvchilar nafaqat Yevropa va Amerika adabiyoti bilan, balki Afrika, Osiyo, Yaqin Sharq va boshqa mintaqalarning nasriy asarlari bilan ham tanishadilar. Bu o'quvchilarga turli madaniyatlarning adabiy an'alarini, hikoya qilish uslublarini, qadriyatlar tizimini tushunish va o'z madaniy tajribasi bilan solishtirish imkonini beradi. Multikultural yondashuv nafaqat adabiy, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi.

Kanadada qo'llaniladigan yana bir muhim strategiya shaxsiy va jamoaviy ishlashning muvozanatli kombinatsiyasidir. Smith va Levitt (2018) kuzatishlariga ko'ra, o'quvchilar bir tomondan individual loyihalar ustida mustaqil ishlaydilar - shaxsiy esse yozish, individual tahlil amalga oshirish, o'z portfolio yaratish - bu ularning individual masuliyat va mustaqillik hissini rivojlantiradi. Boshqa tomondan, guruh loyihalari - birgalikda tahlil qilish, guruh prezentatsiyasi tayyorlash, drammatizatsiya - hamkorlik, kommunikatsiya va jamoaviy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

